



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 6-fevral

55-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2025-yil 4-fevralda “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining muddatli harbiy xizmatga navbatdagi chaqiruvi hamda belgilangan xizmat muddatini o‘tab bo‘lgan harbiy xizmatchilarni Qurolli Kuchlar rezerviga bo‘shatish to‘g‘risida” 2025-yil 29-yanvardagi PQ–31-son qarori haqida”gi 49-6-0-Q/25-sonli qarori haqida

O‘zbekiston Respublikasining “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini muddatli harbiy xizmatga chaqirish tartibini yanada takomillashtirish va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlariga muddatli harbiy xizmatga chaqirilish davrida chaqiruv yoshidagi fuqarolarga qulay sharoitlar yaratish hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 29-yanvardagi PQ–31-son hamda Namangan viloyati hokimining 2025-yil 4-fevraldagi 49-6-0-Q/25-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 21¹-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2025-yil 4-fevraldagi 49-6-0-Q/25-sonli qarori asos va amalda bajarish uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 29-yanvardagi PQ–31-son qarori bilan:

Chaqirilish muddatini kechiktirish va chaqirilishdan ozod etilish huquqiga ega bo‘lmagan O‘zbekiston Respublikasining chaqiruv yoshidagi fuqarolari 2025-yilning mart-aprel oylarida muddatli harbiy xizmatga chaqirilishi;

harbiy xizmatga yaroqli, shu jumladan cheklovlar bilan yaroqli bo‘lgan hamda chaqirilish muddatini kechiktirish va chaqirilishdan ozod etilish huquqiga ega

bo‘lmagan, biroq ushbu chaqiruv davrida Qurolli Kuchlar safiga chaqirilmaydigan fuqarolar safarbarlik chaqiruvi rezervi xizmatiga olinishi;

muddatli harbiy xizmatning belgilangan muddatini o‘tab bo‘lgan harbiy xizmatchilar 2025-yilning mart-aprel oylarida O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari rezerviga bo‘shatilishi e‘tiborga olinsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 29-yanvardagi PQ–31-son qarori talablarini amalga oshirish bo‘yicha tadbirlar rejasi 1-ilovaga, mudofaa ishlari bo‘limi huzuridagi fuqarolarni muddatli harbiy xizmatga chaqirish bo‘yicha butlash komissiyasi 2-ilovaga, mudofaa ishlari bo‘limi huzuridagi muqobil xizmatga chaqirish, safarbarlik chaqiruvi rezervi xizmatiga olish, harbiy xizmatga chaqirishni kechiktirish va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari zaxirasiga o‘tkazish bo‘yicha hududiy komissiyasi 3-ilovaga, mudofaa ishlari bo‘limi huzuridagi hududiy-tibbiy komissiyasi 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (A.Abdusalomov), Mudofaa ishlari bo‘limi (U.Mirzakarimov) bilan birgalikda:

chaqirilish muddatini kechiktirish huquqiga ega bo‘lmagan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini 2025-yilning mart-aprel oylarida muddatli harbiy xizmatga chaqirish;

muddatli harbiy xizmatni o'tashga yaroqli hamda chaqirilish muddatini kechiktirish va chaqirilishdan ozod etish huquqiga ega bo'lmagan, joriy yilning mart-aprel oylari mobaynida Qurolli Kuchlar safiga chaqirilmaydigan fuqarolarni safarbarlik chaqiruvi rezerviga olish;

chaqiruvni uyushtirish va o'tkazish davrida O'zbekiston Respublikasining "Mudofaa to'g'risida", "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 14-yanvardagi 10-son qarori talablariga qat'iy rioya etilishini ta'minlash;

chaqiruv tadbirlarini sifatli o'tkazish maqsadida rahbariyat kengashi, butlash, harbiy-tibbiy, hududiy va hududiy-tibbiy komissiyalari o'z faoliyatlarini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-martdagi PQ-4630-son qarori talablari asosida tashkil etish;

Qurolli Kuchlar safidagi muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan fuqarolarni tantanali kuzatish, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari va jamoatchilik bilan birgalikda belgilangan xizmat muddatlarini o'tab, Qurolli Kuchlar rezerviga bo'shatilgan fuqarolarni tantanali kutib olishni tashkil etish;

chaqiruv davomida chaqiriluvchilarni viloyat yig'uv punktiga olib kelish uchun avtotransport vositalari bilan ta'minlash topshirilsin.

5. Tuman hokimining birinchi o'rinbosari (A.Abdusalomov):

fuqarolarni safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatga olishda ularning va kafillarining imkoniyatlarini atroflicha va sifatli o'rganilishi, to'lov imkoniyatiga ega bo'lgan fuqarolarni mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining yozma tavsiyalari asosida tanlab olinishi, shuningdek, ular tomonidan pul badallarini to'lovi bo'yicha shartnomaviy majburiyatlarini o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash, chaqiriluvchilarni muqobil xizmatga chaqirish, harbiy xizmatga chaqirishni kechiktirish va Qurolli Kuchlari zahirasi o'tkazish hamda Qurolli Kuchlar rezerviga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarni doimiy yashash joylariga qaytarishga oid tadbirlarni tantanali ravishda o'tkazishda jamoat tashkilotlari bilan o'zaro hamkorligini tashkil etish, hududiy komissiyalar faoliyati va chaqiruvning oshkoraligini ta'minlashga komissiya raisi hamda mudofaa ishlari bo'limi boshlig'i ma'sul ekanliklari belgilab qo'yilsin;

chaqiruvni uyushtirish va o'tkazish davrida chaqiruv punktlarida zarur oziq-ovqat mahsulotlari bilan savdo qiluvchi shahobchalar va bufetlar faoliyatini tashkil etsin;

Yoshlar ishlari agentligi tuman bo'limi bilan birgalikda har bir mahalladagi yoshlar yetakchilari tomonidan mahalladagi jasur yigitlarni o'rganish va ularning orasidan eng yaxshilarini muddatli harbiy xizmatga tavsiya etish ishlarini tashkil etsinlar.

2025-yil chavqiruvini o'tkazish uchun barcha sharoit yaratilsin, chaqiruv punktlarini zamonaviy targ'ibot-tashviqot ko'rgazma vositalari bilan ta'minlash va tibbiy ko'rikdan o'tkazish xonalarida zaruriy haroratni ta'minlash choralari ko'rsin;

chaqiruv tadbirlarini tashkil etish va o'tkazish, chaqiriluvchilarni o'z vaqtida mudofaa ishlari organlarida hozir bo'lishlarini ta'minlashda mudofaa ishlari organiga har tomonlama amaliy yordam ko'rsatilsin;

Qurolli Kuchlar rezerviga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarni kutib olish va harbiy qismlarga yuborilayotgan yosh askarlarni tantanali kuzatish marosimlari badiiy jamoalar, taniqli xonandalar, san'atkorlar, shuningdek, yozuvchi va shoirlar va mehnat faxriylari hamda harbiy xizmatchilarning ota-onalari ishtirokida keng jamoatchilik bilan tantanali o'tkazilsin;

6. O'zbekiston Mahallalari uyushmasi tuman bo'limi (O.Qodirov), korxonalar, muassasalar, tashkilotlar rahbarlari "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni talablariga asosan mudofaa ishlari organlari talabi bilan harbiy ro'yxatda turgan shaxslar to'g'risidagi zarur ma'lumotlar taqdim etilsin, chaqiriluvchilarni mudofaa ishlari bo'limiga chaqiruv bo'yicha xabardor etishlari va ularning o'z vaqtida chaqiruv punktlarida hozir bo'lishlari ta'minlansin.

Fuqarolarni safarbarlik chaqiruvi rezervi xizmatiga olish ishlarida mahalla fuqarolari yig'inlarining ishtiroki ta'minlansin, mahalla raislari tomonidan safarbarlik chaqiruvi rezervi xizmati uchun belgilangan pul badalini to'lash imkoniyatiga ega bo'lgan chaqiriluvchilar safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatga olish uchun mudofaa ishlari organiga tavsiya etilsin.

7. Tibbiyot birlashmasi (O.Qo'ldoshev)ga:

tuman mudofaa ishlari bo'limi huzuridagi hududiy-tibbiy komissiya tarkibiga tibbiyot birlashmasidan jarroh, terapevt, dermatovenerolog, stomatolog, oftalmolog, otorinolaringolog, psixiatr va nevropatolog mutaxassisligiga ega shifokorlar hamda o'rta tibbiyot xodimlarini tayinlasin;

chaqiruv punktini zarur tibbiy asbob-uskunalar va jihozlar bilan ta'minlash, chaqiriluvchilarni zarur talablarga asosan laboratoriya tekshiruvlaridan bepul va sifatli o'tkazilishini tashkil etish choralari ko'rsin;

tibbiy ko'rik xulosalarini elektron ko'rinishda shakllantirish va umumiy elektron baza bilan ma'lumot almashuvi uchun yig'uv punkti vrach mutaxassislarini kompyuter vositalari bilan ta'minlash vazifalari topshirilsin.

8. Sanitariya epidemiologiya osoyishtaligi va jamoat salomatligi markazi (U.Boynazarov) tuman chaqiruv punktida tibbiy ko'rikdan o'tish uchun chaqiruv yoshidagi fuqarolarni yig'ilgan vaqtda turli infeksiyasini tarqalishiga yo'l qo'ymaslik hamda oldini olish maqsadida, chaqiruv punktida dezinfeksiya ishlarini tashkil etsin, zarur himoya vositalari bilan ta'minlash va zaruriyat yuzaga kelganda mudofaa ishlari bo'limi talablariga asosan chaqiriluvchilar infeksiyalarga tekshirish ishlarini bepul amalga oshirsin.

9. Mingbuloq elektr tarmoqlari korxonasi (B.G'ulomqodirov), Hududgaz GTF Mingbuloq tuman filiali (M.Ismoilov), "Namangan suv ta'minoti" MChJ Mingbuloq tuman filiali (M.Tolipova), chaqiruv punktini elektr energiyasi, tabiiy gaz, ichimlik suvi va issiqlik bilan uzluksiz ta'minlash yuzasidan zarur chora-tadbirlarni ko'rsinlar, ularni tegishli cheklovlardan chiqarilib va mas'ul xodimlar navbatchiligini tashkil etsinlar.

10. Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi (Z.Axmadjonov) mudofaa ishlari bo'limi (U.Mirzakarimov) hamda aloqador tashkilotlar bilan hamkorlikda:

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida muddatli harbiy xizmatni o'tab, rezervga bo'shatilgan fuqarolarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda, ularning egallagan harbiy va xo'jalik ixtisoslarini hisobga olgan holda ishga joylashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqsin va uni amalga oshirsin;

zahiraga bo'shatiladigan fuqarolarni xizmat davrida egallagan harbiy va fuqarolik mutaxassisligini hisobga olgan holda ularga yetarli ish o'rinlarini oldindan tayyorlab qo'yilishini ta'minlasin.

Qurolli Kuchlarda muddatli harbiy xizmatni o'tab bo'lgan fuqarolarni davlat muassasalari, tashkilotlari va korxonalariga ishga qabul qilishda ularni armiya maktabini o'tagan, vatanparvarlik tuyg'usi singdirilgan, harbiy tayyorgarlik ko'rgan, mamlakatning eng faol va tayyorlangan kadrlar zahirasi sifatida ustunlik huquqidan foydalanishlari hisobga olinsin.

11. Ichki ishlar bo'limi (D.Karimov):

chaqiriluvchilarni belgilangan manzillarga tartibli va xavfsiz yetib borishini ta'minlash maqsadida kuzatuv uchun avtomobillar ajratish;

tuman chaqiruv punktida jamoat tartibini saqlash hamda kuzatuv marosimlari o'tkazilayotgan kunlari rejaga asosan viloyat yig'uv punkti va Pop temir yo'l bekatida kuchaytirilgan tartibda ichki ishlar xodimlari bilan ta'minlash;

muddatli harbiy va safarbarlik rezervi chaqiruvida xizmatni o'tashdan bosh tortgan shaxslarni belgilangan tartibda mudofaa ishlari bo'limlariga keltirish choralari ko'rsin.

12. Madaniyat bo'limi (R.Xoliqova) belgilangan jadvalga asosan muddatli harbiy xizmatni o'tab qaytgan fuqarolarni tantanali kutib olish hamda chaqiriluvchilarni harbiy xizmatga tantanali kuzatish tadbirlarida konsert dasturlarini tashkil etsin.

13. Yoshlar ishlari Agentligi tuman bo'limi (M.Mamasobirov) mahalla yoshlar yetakchilari tomonidan mahalladagi jasur yigitlarni o'rganish va ularning orasidan eng yaxshilarini muddatli harbiy xizmatga tavsiya etish ishlari tashkil etilsin va chaqiruv davrida har bir mahalla yoshlar yetakchilari tomonidan muddatli harbiy xizmatga tavsiya etilgan chaqiriluvchilar bo'yicha kunlik tahlil qilib borilsin.

14. Iqtisodiyot va moliya bo'limi (Z.Jurabayev), G'aznachilik (M.Najmiddinov) bo'limi:

tuman chaqiruv punktining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda ko'rgazmali qurollarni tayyorlash uchun Mudofaa ishlari bo'limining talabnomasiga asosan belgilangan tartibda zarur mablag' ajratsin;

besh kun muddatda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 14-yanvardagi 10-son Qarorining 10-bandi va mazkur Qaror bilan tasdiqlangan "Fuqarolarni muddatli harbiy xizmatga yig'ish va jo'natish, ularni harbiy qismlarda qabul qilish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari rezerviga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarni yashash joylariga qaytarishni tashkil etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Nizom"ning 9-bandiga asosan muddatli harbiy xizmatga kuzatilayotgan chaqiriluvchilarga transport ta'minoti, bayram tushligi va tuman hokimining esdalik sovg'alarini tashkil etish uchun asosli hisoblarga muvofiq mablag' ajratish choralari ko'rsinlar.

15. Mudofaa ishlari bo'limi (U.Mirzakarimov) mahalliy byudjetdan ajratiladigan mablag'lar hisobidan muddatli harbiy xizmatga kuzatilayotgan chaqiriluvchilarga bayram tushligi va tuman hokimining esdalik sovg'alarni tayyorlash chora-tadbirlarini ko'rsin.

16. Tuman hokimligi Axborot xizmati (Sh.Kenjayev), "Mingbuloq" gazetasi (Q.Akbarov) tuman Mudofaa ishlari bo'limi (U.Mirzakarimov) bilan birgalikda chaqiriluvchilarni Qurolli Kuchlarda xizmat

qilishga tayyorlashning borishi, fuqarolarni muddatli harbiy xizmatga chaqirishning amalga oshirilishi, chaqiruv komissiyalari faoliyati, safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatning tashkil qilinishi va Qurolli Kuchlar rezerviga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarni joylarda kutib olish bo'yicha tashkil etilayotgan tantanali tadbirlarni ommaviy axborot vositalarida keng yoritish tavsiya etilsin.

17. Tuman hokimining 2024-yil 19-fevraldagi 79-6-81-Q/24-sonli qarori o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

18. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o'rinbosari A.Abdusalomov hamda tuman Mudofaa ishlari bo'limi boshlig'i U.Mirzakarimovlar zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov

Mingbuloq tuman hokimining
2025-yil 6-fevraldagi
55-6-81-Q/25-son qaroriga
1-ilova

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining muddatli harbiy xizmatga navbatdagi chaqiruvi hamda belgilangan xizmat muddatini o‘tab bo‘lgan harbiy xizmatchilarni Qurolli Kuchlar rezerviga bo‘shatish to‘g‘risida” 2025 yil 29-yanvardagi PQ-31-son qarori talablarini Mingbuloq tumanida amalga oshirish yuzasidan

TADBIRLAR REJASI

| No | Tadbirlar nomi | Mas‘ul | Muddati |
|-----------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------|-------------------------------|
| I. Fuqarolarni muddatli harbiy xizmatga chaqirishni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha | | | |
| 1. | Qurolli Kuchlarning chaqiriluvchilar bilan sifatli to‘ldirilishini ta‘minlash maqsadida, joylardagi chaqiruv komissiyalarning samarali ishlashini tashkil etish | Tuman chaqiruv komissiyasi raisi | Chaqiruv mavsumi davomida |
| 2. | Tibbiy komissiyalarning samarali ishlashini, chaqiriluvchilarning tibbiy ko‘rikdan sifatli va xolisona o‘tkazilishini, shuningdek, chaqiruv punktlarini zarur tibbiy asbob-uskunalar va anjomlar bilan qo‘shimcha ravishda jihozlanishini ta‘minlash | Tuman hokimligi, tuman tibbiyot birlashmasi, Mudofaa ishlari bo‘limi | Chaqiruv mavsumi davomida |
| 3. | Chaqirilish muddatini kechiktirish huquqiga ega bo‘lmagan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini 2025 yilning mart-aprel oylarida muddatli harbiy xizmatga chaqirish; muddatli harbiy xizmatni o‘tashga yaroqli hamda chaqirilish muddatini kechiktirish va chaqirilishdan ozod etish huquqiga ega bo‘lmagan, joriy yil chaqiruv mobaynida Qurolli Kuchlar safiga chaqirilmaydigan fuqarolarni safarbarlik chaqiruvi rezerviga olish; fuqarolarni safarbarlik chaqiruvi rezerviga olishda ularning va kafillarining moddiy imkoniyatlarini atroflicha o‘rganish, etarli to‘lov imoniyatiga ega bo‘lgan fuqarolarni, mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining yozma tavsiyalari asosida tanlab olinishini ta‘minlash | Tuman hududiy komissiyasi | 2025 yil mart -aprel oylarida |
| 4. | Muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan fuqarolarni qo‘shinlarga jo‘natishdan avval, badanlarini ko‘zdan kechirish, kiyim-kechaklarini to‘liq almashtirgan holda hammomda yuvintirish, ashyoviy mulk bilan ta‘minlash, fuqarolik kiyim-kechaklarini ularning ota- onalari, yaqinlariga shaxsan qaytarishni ta‘minlash, Nizom talablari asosida Yo‘riqnomaga o‘tkazish | Tuman Mudofaa ishlari, tuman tibbiyot birlashmasi | Xizmatga jo‘natish kunlari |

| | | | |
|----|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------|----------------------|
| 5. | Muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan fuqarolarni qo'shinlar safiga kuzatish tantanali marosimlarini o'tkazish uchun tuman Mudofaa ishlari bo'limi chaqiruv punkti oshxonasini tayyorlash | tuman Mudofaa ishlari bo'limi | 2025 yil 1 martgacha |
|----|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------|----------------------|

| № | Tadbirlar nomi | Mas'ul | Muddati |
|-----|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------|
| 6. | Muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan fuqarolarga tuman hokimligining esdalik sovg'alari hamda tantanali kuzatish marosimi qatnashchilari va harbiy xizmatchilarga bayram tushligi xarajatlari uchun belgilangan tartibda mablag' ajratish | Tuman Iqtisodiyot va moliya, G'aznachilik bo'limlari | 2025 yil 1 martgacha |
| 7. | Tuman chaqiruv punktida chaqiriluvchilarni muddatli harbiy xizmatga jo'natishga bag'ishlangan tantanali marosimlar o'tkazish, ota-onalar va jamoatchilik vakillari ishtirokini ta'minlash | Mudofaa ishlari bo'limi, "Ma'naviyat va ma'rifat markazi" tuman markazi, "Yoshlar ishlari agentligi" tuman bo'limi | Kuzatish kunlari |
| 8. | Tuman chaqiruv punktida o'tkaziladigan tantanali marosimlarni ovoz kuchaytirgich vositalari bilan ta'minlash | "O'zbektelekom" AK Mingbuloq filiali | Kuzatish kunlari |
| 9. | Muddatli harbiy xizmatga ketayotgan chaqiriluvchilarga esdalik sovg'alarini tayyorlash va topshirishni tashkil etish | Tuman hokimligi, Mudofaa ishlari bo'limi, Yoshlar agentligi | Kuzatish kunlari |
| 10. | Muddatli harbiy xizmatga ketayotgan chaqiriluvchilar va tantanali kuzatib qo'yish qatnashchilariga bayram tushligini tashkil etish | Tuman hokimligi, Mudofaa ishlari bo'limi | Kuzatish kunlari |
| 11. | Tayyorlangan maxsus ssenariy asosida tantanali marosim qatnashchilariga badiiy va ijodiy jamoalarning dasturlarini namoyish etish | Tuman Madaniyat bo'limi | Kuzatish kunlari |
| 12. | Muddatli harbiy xizmatga kuzatilayotgan chaqiriluvchilarni ota-onalar, hokimiyat, jamoat tashkilotlari vakillari bilan esdalik uchun suratga tushishini tashkil etish | Tuman Mudofaa ishlari bo'limi | Kuzatish kunlari |

| | | | |
|-----|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------|--------------------------|
| 13. | Chaqiriluvchilarni tuman chaqiruv punktidan viloyat yig'uv punktiga etkazish da kuzatuv avtotransportini ajratish va yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash | Tuman Ichki ishlar, Mudofaa ishlari bo'limi | Chaqiruv jadvali asosida |
|-----|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------|--------------------------|

| № | Tadbirlar nomi | Mas'ul | Muddati |
|-----|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------|-------------------|
| 14. | Chaqiruv mavsumini hamda chaqiriluvchilarni harbiy qo'shinlarga kuzatish tadbirlarini ommaviy axborot vositalarida keng yoritilishini ta'minlash | Tuman hokimligi Axborot xizmati, "Mingbuloq" gazetasi | Chaqiruv davomida |

II. O'zbekiston Respublikasi qurolli Kuchlar rezerviga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarni kutib olish va ularni ish bilan ta'minlash va ijtimoiy muhofazasini tashkil etish bo'yicha

| | | | |
|-----|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------|----------------------------|
| 15. | Tuman hokimligi, mahalliy o'zini-uzi boshqarish organlari, jamoat tashkilotlari, ota-onalar ishtirokida rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarni kutib olishga bag'ishlangan tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish | Yoshlar agentligi, Mahalla uyushmasi, MK "Vatanparvar" | 2025 yil mart-may oylarida |
| 16. | Rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarga ijodiy jamoalar va badiiy xavaskorlar ishtirokida konsertlar tashkil etish | Tuman Madaniyat bo'limi | 2025 yil mart-may |
| 17. | Tantanali kutib olish marosimlarida tuman Axoli bandlika ko'maklashish markazi, harbiy xizmatchilar va ularning ota- onalariga ishga joylashtirish va kasbga o'qitish yuzasidan ma'lumotlar berish va tegishli eslatmalarni tarqatish | Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi | 2025 yil mart-may oylarida |
| 18. | O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar rezerviga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarni kutib olish bilan bog'liq tantanali tadbirlarni ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritib borish | Tuman hokimligi Axborot xizmati, "Mingbuloq" gazetasi | 2025 yil mart-may oylarida |

| | | | |
|-----|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------|
| 19. | Qurolli Kuchlar safida muddatli harbiy xizmatni o'tab, 2024 yil mart-may oylarida rezervga bo'shatiladigan fuqarolar ro'yxatini tuzish_Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limiga taqdim etish | Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi, tuman mudofaa ishlari bo'limi | 2025 yil 15 martgacha |
| 20. | Rezervga bo'shatiladigan fuqarolarni ma'lumoti, kasbi, egallagan harbiy va xo'jalik ixtisoslarini hisobga olgan holda ish o'rinlariga bo'lgan ehtiyojlarini o'rganib chiqish | Tuman hokimligi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi | 2025 yil 15 martgacha |
| № | Tadbirlar nomi | Mas'ul | Muddati |
| 21. | Rezervga bo'shatiladigan fuqarolarning ro'yxatlari asosida ular uchun ish o'rinlari rezervini tayyorlash | Tuman hokimligi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi | 2025 yil mart-may oylarida |
| 22. | Muddatli harbiy xizmatni o'tab bo'lgan fuqarolar bilan ularning mehnat huquqlarini tushintirish bo'yicha har biri bilan shaxsan ish olib boorish | Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi | 2025 yil mart-may oylarida |
| 23. | Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilar bilan ishga joylashtirish, ijtimoiy muhofaza qilish masalalari bo'yicha uchrashuvlar tashkil qilish | Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi, tegishli idoralar bilan hamkorlikda | 2025 yil mart-may oylarida |
| 24. | Harbiy xizmatdan rezervga bo'shatilgan fuqarolarning oilalariga tashrif buyurib, ularning turmush va maishiy sharoiti, kelgusi rejaları, qaysi soha va kasb bo'yicha ishlashga bo'lgan istaklarini o'rganish va shu asosda ish o'rinlarini taklif etish | Tuman hokimligi, Mahalla uyushmasi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi, Yoshlar agentligi | 2025 yil mart-may oylarida |
| 25. | Rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarning ehtiyojiga qarab ularni kasb-hunarga tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirishda amaliy yordam ko'rsatish, egallagan harbiy va xo'jalik ixtisoslarini hisobga olgan holda, ustun darajada davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlariga ishga joylashtirish | Tuman hokimligi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi | 2025 yilning 2-choragi yakunigacha |
| 26. | Harbiy xizmatdan qaytib, tadbirkorlik bilan shug'ullanish istagini bildirgan fuqarolarga amaliy yordam ko'rsatish | Tuman hokimligi, Savdo-sanoat palatasi tuman bo'limi, | Doimiy |

| | | | |
|-----|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------|----------------------------|
| 27. | Harbiy xizmatdan qaytib xususiy tadbirkorlikni rejalashtirgan fuqarolarga kredit zahiralari tayyorlash, kreditlarni rasmiylashtirish hamda biznes-rejalalar tayyorlashda amaliy yordam ko'rsatish | ATB «Mikrokreditbank» tuman filiali, AT «Xalq banki» tuman filiali | 2025 yil mart-may oylari |
| 28. | Harbiy xizmatni o'tab qaytgan fuqarolarda faol hayotiy munosabatni shakllantirish, ularni jamoat ishlariga, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga keng jalb etish, iqtidorli, etakchilik qobiliyatiga ega bo'lganlarni «Yoshlar ishlari agentligi» tuman bo'limi tizimlarida ishlash uchun tanlab olish maqsadida yakka tartibda suhbatlar va uchrashuvlar o'tkazish | «Yoshlar ishlari agentligi» tuman bo'limi | 2025 yil mart-may oylarida |
| № | Tadbirlar nomi | Mas'ul | Muddati |
| 29. | Belgilangan tadbirlarning ijrosi to'g'risida tuman hokimligiga axborot taqdim etish | Ijro uchun mas'ul tashkilot, idoralar rahbarlari | 2025 yil 15 may kunigacha |

Mingbuloq tuman hokimining
2025-yil 6-fevraldagi
55-6-81-Q/25-son qaroriga
2-ilova

Mingbuloq tuman mudofaa ishlari bo'limi huzuridagi fuqarolarni muddatli harbiy xizmatga chaqirish
bo'yicha butlash komissiyasi

TARKIBI

A.Rizayev 07648 sonli harbiy qism komandirining jangovar tayyorgarlik bo'yicha o'rinbosari, butlash komissiyasi raisi (kelishuv asosida)

A'zolari:

J.Kenjayeov tuman ichki ishlar bo'limi boshli'ining o'rinbosari huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'limi boshlig'i

D.Mamajonov tuman favqulotda vaziyatlar bo'limi boshlig'i

O.Choriyev DXX Chegara Qo'shinlariga qarashli 9250 harbiy qism bo'yicha xizmat boshlig'i

Sh.Fayzullayev O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiya Namangan viloyati bo'limi vakili

S.Berkinova Tuman mudofaa ishlari bo'limi, butlash komissiyasi kotibi

Izoh: butlash komissiyasi a'zolari boshqa ishga o'lgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan yoki vazifasini vaqtincha bajarish zimmasiga yuklatilgan shaxslar kiritiladi.

Mingbuloq tuman hokimining
2025-yil 6-fevraldagi
55-6-81-Q/25-son qaroriga
3-ilova

Mingbuloq tuman mudofaa ishlari bo'limi huzuridagi muqobil xizmatga chaqirish, safarbarlik chaqiruv
rezervi xizmatiga olish, harbiy xizmatga chaqirishni kechiktirish va O'zbekiston Respublikasi Qurolli
Kuchlari zaxirasiga o'tkazish bo'yicha hududiy komissiyasi

TARKIBI

J.Raximov tuman hokimining Yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-
ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari, hududiy komissiyasi raisi (kelishuv
asosida)

A'zolari:

U.Mirzakarimov tuman mudofaa ishlari bo'limi boshlig'i-hududiy komissiyasi raisi o'rinbosari

D.Yo'ldoshev tuman ichki ishlar bo'limi boshlig'ining o'rinbosari huquqbuzarliklar
profilaktikasi bo'limi boshlig'i

O.Qodirov O'zbekiston mahallalar uyushmasi tuman bo'limi boshlig'i o'rinbosari

Sh.Axmedov Tuman ko'p tarmoqli poliklinikasi quloq burun tomoq mutaxassisi, katta
shifokor

S.Berkinova Tuman mudofaa ishlari bo'limi chaqiruv bo'linmasi katta yordamchisi,
xududiy komissiyasi kotibi

Izoh: Komissiya a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan
tayinlangan yoki vazifasini vaqtincha bajarish zimmasiga yuklatilgan shaxslar kiritiladi.

Mingbuloq tuman hokimining
2025-yil 6-fevraldagi
55-6-81-Q/25-son qaroriga
4-ilova

**Hududiy-tibbiy komissiyasi
TARKIBI**

1. Sh.Axmedov Tuman ko'p tarmoqli poliklinika tibbiy komissiya katta shifokori
2. Sh.Axmedov Tuman ko'p tarmoqli poliklinika quloq, burun, tomoq kasalliklari shifokori
3. X Beknazarov Tuman ko'p tarmoqli poliklinika Ko'z kasalliklari shifokori
4. Sh.Eshonqulov Tuman ko'p tarmoqli poliklinika Ruxiy kasalliklar shifokori
5. M.Ergashev Tuman ko'p tarmoqli poliklinika Asab kasalliklar shifokori
6. M.Erqulov Tuman ko'p tarmoqli poliklinika Tish kasalliklari shifokori
6. S.Usmanov Tuman ko'p tarmoqli poliklinika Ichki kasalliklar shifokori
7. A.Ergashev Tuman ko'p tarmoqli poliklinika Teri tanosil shifokori
8. A.Abdullayev Tuman ko'p tarmoqli poliklinika Jarroxlik kasalliklari shifokori
9. N.Mamatqulova Tuman ko'p tarmoqli poliklinika Antropometrik Shifokori

Izox: boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan yoki vazifasini vaqtincha bajarish zimmasiga yuklatilgan shaxslar kiritiladi.